

**O‘ZBEKISTON SSRNI ELEKTIRLASHTIRISH JARAYONI
(1940-1950-YILLAR)**

Shermamatova Dilnoza Alisherovna

O‘zbekiston Milliy universiteti Tarix fakulteti

1-kurs magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10412622>

Annotatsiya. Ushbu maqolada 1940-1950-yillarda O‘zbekiston SSRni elektirlashtirish jarayoni haqidagi malumotlar keltirilib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Elektr energiyasi, elektr tarmoqlari, elektr podstansiyalari, issiqlik energiyasi.

**THE PROCESS OF ELECTRIFYING THE UZBEK SSR
(1940S-1950S)**

Abstract. This article provides information about the process of electrifying the Uzbek SSR in the 1940s and 1950s.

Keywords: electricity, electrical networks, electrical substations, thermal energy.

**ПРОЦЕСС ЭЛЕКТРИФИКАЦИИ УЗБЕКСКОЙ ССР
(1940-1950-Е ГОДЫ)**

Аннотация. В данной статье представлена информация о процессе электрификации Узбекской ССР в 1940-1950-е годы.

Ключевые слова: электроэнергия, электрические сети, электрические подстанции, тепловая энергия.

Elektr energiyasi insoniyat sivilizasiyasining noyob ne‘mati bo‘lib, bugungi kunda hayotimiz farovonligini ta‘minlab beruvchi muhim vositalardan biri hisoblanadi. Jahon energetikasi tarixi, xususan, O‘zbekiston elektr energetikasining tarixiy yo‘li ulkan tarixiy jarayondir - hayotimiz evolyusiyasi muhim bosqichlari hamda uning taraqqiyoti tendensiyalarini o‘rganish zamonaviy energetika istiqbollari aniqlash uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekistonda energetika sohasining rivojlanish tarixi bir asrdan ko‘p davrni qamrab oladi. O‘tgan asrning boshlarida, ya‘ni 1909 yilda Toshkent shahrida Belgiya kompaniyasi tomonidan elektr tramvayni boshqarish uchun beshta dvigatelli 1,40 50 kVt quvvatga ega dizel dvigatelli 1450 kVt quvvatga teng bo‘lgan elektr stansiyasi qurildi. Ayni o‘sha davrda Toshkent shahrida dastlabki elektr tarmoqlari paydo bo‘la boshladi.

1911 yilda Toshkent shahrini yoritish uchun 125 kVt kuchlanishli elektr stansiyasi o‘rnatildi. 1913 yilga kelib, O‘zbekiston hududida elektr stasiyalarining quvvati 3000 kVtga yetib, elektr energiyasini ishlab chiqarish esa 3,3 mln kVt soatni tashkil etdi. Elektr tarmoqlari esa past kuchlanishli havo liniyalari bor-yo‘g‘i bir necha kilometrni tashkil qilardi.

1923 yilda Toshkent shahri yaqinida Bo‘zsu irrigatsiya kanalida 4000 kVtga ega shu nomdagi gidroelektrstansiyasi qurilishi boshlandi. Bu O‘zbekistonning ilk elektr stansiyasi bo‘lib, iste‘molchilarga elektr energiyasini yetkazib berish uchun elektr tarmoqlari va elektr podstansiyalari qurilishi bilan birga olib borildi. 30 kVt kuchlanishga ega 6 kVt kabel kuchlanishli gidroelektrstansiyasi Toshkent shahridagi tramvay stansiyasiga ulandi.

1933 yilda quvvati 1300 kVt bo'lgan Toshkent yaqinida Qodiriya gidroelektrstansiyasi qurilishi yakunlandi. 1934 yil 25 sentyabrda O'zbekiston energetikasi tizimi boshqaruv organiga asos solindi. Elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmi 1909 yil 3 mln kVt soatdan 1934 yilda 180 mln kVt soatga yoki sutkasiga 60 kVt soatga yetdi.

Urushdan avvalgi yillarda yirik sanoat korxonalarini elektr energiyasi ta'minotiga ulash ishlari amalga oshirildi. Jumladan, Farg'ona neftni qayta ishlash zavodiga elektr energiyasi va issiqlik energiyasini yetkazib berish uchun 2000 kVt quvvatga ega birinchi bug' turbinali elektr stansiyasi foydalanishga topshirildi.

1935 yilgacha uning quvvati 8,300 kVt soatga oshirildi. Farg'ona to'qimachilik kombinati, Quvasoy syement zavodi va boshqa iste'molchilar undan elektr quvvati ola boshladi. 1939 yilda Toshkent to'qimachilik fabrikasida quvvati 6 MVt bo'lgan 2 ta teplofikasion turbinalar ishga tushirildi.

Ma'lumki, Ikkinchi jahon urushi yillarida (1941-1945 yillar) ko'plab sanoat korxonalari O'zbekistonga ko'chirilgan bo'lib, bu esa yangi elektr stansiyalarini qurishni taqozo etdi. Har birining quvvati 10-15000 kVt bo'lgan Oq tepa, Oq qovoq, Salar, Qibray, Quyi Bo'zsu kaskad gidroelektrstansiyalari foydalanishga topshirildi. 1943 yilda quvvati 126 000 kVt bo'lgan Farhod gidroelektrstansiyasi qurilishi boshlandi.

1950 yilda respublikada elektr stansiyalarining o'rnatilgan quvvati 528 MVtni tashkil qilib, bu 2680 mln kVt soat elektr energiyasini ishlab chiqarish imkoniyatini berardi.

1953 yilda Angrendagi qo'ng'ir ko'mir koni bazasida quvvati 600 MVt bo'lgan Markaziy Osiyodagi eng yirik Angren issiqlik elektr stansiyasi qurilishi boshlandi. Angren IES yuqori quvvatli turbinalari 50 MVt, yuqori bosimli bug' parametrlari bo'yicha qurilgan birinchi elektr stansiyasi bo'ldi.

Angrendagi qo'ng'ir ko'mirdan hozirgi kunda ham elektr stansiyasi uchun foydalanib kelinmoqda. Qodiriya elektr stansiyasining barpo etilishi bilan bir vaqtning o'zida, Toshkent shahrida 35 kVt quchlanishga ega ikki zanjirli birinchi uzatish liniyasi qurildi.

1962 yilda O'zbekistonda elektr stansiyalarining o'rnatilgan quvvati 1973 MVt, yil davomida elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmi 7,5 mln kVt soat, elektr uzatish liniyalarining umumiy uzunligi 11.200 km ni tashkil etdi.

Shu yilda respublika energetika tarmog'ini boshqarish tizimini takomillashtirish maqsadida O'zbekiston SSR Energetika va elektrlashtirish ministrligi tashkil etildi va ministr lavozimiga tajribali energetik Hamidov Aziz Hakimovich tayinlandi. U qariyb 25 yil davomida ministr lavozimida faoliyat yuritib, uning bevosita rahbarligida issiqlik elektr energetikasi sohasida bir qator yirik loyihalar amalga oshirildi, bu bilan respublika energetika tarmog'i rivojlanishi yangi bosqichga ko'tarildi.

Jumladan, Angren IES, Toshkent IES, Navoiy IES, Taxiatosh IES kabi yirik energetika korxonalari bunyod etildi. Mamlakatimiz energetika sohasining jadal rivojlanishiga hamda uning rivojlanishi texnik yo'nalishini tubdan o'zgarishiga tabiiy gaz konlarining ochilishi katta turtki bo'ldi. 1963 yilda Toshkent GRESda umumiy quvvati 1920 MVt bo'lgan 12 ta energoblok va 850 MVt quvvatga ega Navoiy GRES qurilishi boshlandi. 1966 yilning kuzida energetika tizimidagi eng yirik loyiha - Sirdaryo GRES qurilishi boshlandi.

1985 yil aprelda 300 MVt quvvatga ega bo'lgan Yangi-Angren GRES 1-energoblok ishga tushirildi. 1985 yilda Muborak shahri sanoat bazasida gaz kimyo-kompleksi korxonalarini issiqlik va elektr energiyasiga bo'lgan ehtiyojini qanoatlantirish maqsadida 60 MVt quvvatga ega bo'lgan Muborak IEM ishga tushirildi. 1990 yilda quvvati 630 MVt bo'lgan Taxiatosh GRES ishga tushirildi.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston elektr energetikasi rivojlanishning yangi bosqichiga qadam qo'yildi. Jumladan:

-energetika tarmog'ini boshqarish tizimi takomillashtirildi – bozor tamoyillpriga asoslangan “O'zbekenergo” davlat aksiyadorlik kompaniyasi tashkil etildi;

-energetika tizimini jadal rivojlantirish maqsadida xalqaro moliyaviy institutlar va xorijiy sheriklar bilan faol hamkorlik yo'lga qo'yildi;

-tarmoqqa xorijiy investisiyalarni jalb qilish hamda zamonaviy texnologiyalarni joriy etish asosida modernizasiya ishlarini amalga oshirish jadallashdi;

-energetika sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi O'zbekiston Respublikasining elektr energetikasi to'g'risidagi qonuni qabul qilindi.

Shu davrda energiya sarfini qisqartirish maqsadida energosamaradorligi mavjud issiqlik elektr stansiyalariga nisbatan 20-40 foizga yuqori bo'lgan bug'-gaz va gaz turbinalirini joriy qilish bilan qator investisiya loyihalari amalga oshirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbuslari bilan bugun tarmoqda ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. 2016 yilgacha yangi joriy etilgan zamonaviy uskunalarning umumiy quvvati sohada 505 MVt (jami ishlab chiqarish quvvatlarining 5,45 foiz)ni tashkil etgan bo'lsa, 2016-2021 yillarda amalga oshirilgan investisiya loyihalari natijasida qo'shimcha 5304 MVt yangi va modernizasiya qilingan quvvatlar ishga tushirilib, energotejamkor, eng zamonaviy-energosamarador uskunalarning umumiy quvvati 5809 MVtga yetdi va issiqlik elektr stansiyalari umumiy quvvatining 53 foizini tashkil qilmoqda.

Bugungi kunda O'zbekistonda elektr stansiyalarining umumiy o'rnatilgan quvvati 14,1 mln kVtdan oshadi, shu jumladan, issiqlik elektr stansiyalariga umumiy quvvati 12,5 mln kVt yoki yagona elektr energotizimida o'rnatilgan quvvatning 86 foizini tashkil etmoqda.

REFERENCES

1. 2017-2021 yillarda Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида: Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февраль ПФ-4947-сон Фармони. WWW.Lex.uz.
2. 2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида: Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январь ПФ-60-сон Фармони. WWW.Lex.uz
3. Ataullayev.N.O. Navoiy davlat konchilik institute Yo'nalishga kirish; o'quv uslubiy qo'llanma. Navoiy - 2020 y.
4. Hidroelektrostansiyalar. O'quv ko'llanma Badalov A.S., Uralov B.R., Zenkova V.A., Shaazizov F.Sh., Toshkent irrigatsiya va melioratsiya instituti Toshkent. 2007 y.
5. Karimov R.Ch., Rafikova G.R., E.G.Usmonov, M.R.Ro'zinazarov. Yo'nalishga kirish. Ma'ruzalar matni, -T.: ToshDTU nashriyoti, 2018.

6. "Ta'lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasida innovatsion texnologiyalarni qo'llash mamlakat taraqqiyotining muhim omili" mavzusidagi XV respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari V qism (2018 yil, 2-3 iyun) samarqand-2018. Tolliboev . M. A. Samarkan GES lar kaskadi.uk.
7. Toirov O.Z., Alimxodjaye K.T., Alimxodjaye SH.K. Qayta tiklanuvchi energiya manbalari. -Toshkent.: «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2019
8. Toshkent shahar elektr tarmoqlari korxonasi AJ matboat xizmati.